

**ODAMDA RIVOJLANISHNING FILOGENETIK NUQSONLARI****Ortiqov Muhammadibrohim Musajonovich**

Kokand universiteti Andijon filiali Tibbiyot fakulteti asisitenti

**Qudratillo Axmadjonov Mashrabboy o‘g‘li**

Kokand university Andijon filiali assistenti

**Shokirova Oygul Dilshodbek qizi**

Qo‘qon Universiteti Andijon Filiali, Davolash ishi ta‘lim yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ishda insonlarda uchraydigan kasallaiklar va sababalari to‘g‘risida ma‘kumot berib o‘tilgan. Turli filogenetik korrelyasiyalar jarayonlari, ular inson organism tuzilishi va keltirib chiqaradigan anomaliyalarning izoxlanishi tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson organizmi, nuqson, korrelasiya, hujayra.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham bolalar salomatligiga oid alohida maqsadlar ham belgilangan.[1]

Odam yoki inson sut emizuvchilar sinfining Hominidae oilasiga mansub primat turidir. Odamlar abstrakt fikrlash, nutq, introspeksiya turidir. Odam tanasining rivojlanishi – ontogenezi Yosh antropologiyasi odamning shaxsiy taraqqiyoti evolutsiyasini ya‘ni tuxum hujayraning urug‘lanishdan tortib to tabiiy o‘limgacha bo‘lgan davr mobaynidagi anatomik tuzilishi, fiziologik funksiyalarini o‘rganadi. Filogenez (yun.phylon –avlod, qabila) filogeniya – tirik organizmlar hamda ular taksonomik guruhlari: olam, tip, sinf, turkum, oila, avlod va turlarning taraqqiyoti. “Filogenez” termini nemis olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritilgan. Biologiyaning Filogenez va uning qoniniyatalrini o‘rgana- digon bo‘limi filogenetika deyiladi. Filogenezni tadqiq qilish evolutsiyaning umumiy nazariyasini rivojlantirish, organizmlarning tabiiy sistemasini tuzish uchun ko‘rib chiqilgan [2].

Umurtqali organlar tizimi filogenezi, ushbu tip hayvonlari evolutsiyaning progressiv yo‘nalishi bo‘yicha bosh suyaksizlar kenja tipidan boshlab sutemizuvchilargacha ko‘rib chiqiladi.

Filogenetik korrelatsiyalar topografik, dinamik va biologik korrelatsiyalarga ajratiladi.

1.Topografik korrelatsiyalar – filogenezda funksional bog‘lanmagan, lekin yaqin joylashgan a‘zolarining bir- biriga bog‘liq holda o‘zgarishlari. Masalan, umurtqalilar ko‘zining o‘lachelari holati miya va miya qutichasining tuzilishiga bog‘liq. Umurtqalilar tanasi umumiy tuzilish planiga ega (nerv naychasi, xorda, ichak, yurak). Topografik korrelatsiyalar morfogenetik korrelatsiyalar bilan bog‘liq.

2.Dinamik korrelatsiyalar – ergonitik, funksional yoki ishchi korre-latsiyalar ham deb ataladi. Filogenezda funksional bog‘langan a‘zolarining o‘zaro o‘zgarishlari. Bunga misol qilib nerv markazlari va retseptorlar orasidagi bog‘lanishlarni keltirish mumkin.

3.Biologik korelatsiyalar – maydon orqali ham, funksional ham o‘zaro bog‘lanmagan a‘zolarining tashqi muhit omillariga moslashishini ta‘minlovchi bir – biriga bog‘liq o‘zgarishlari. Masalan, primatlarning daraxtda yashashini ta‘minlovchi o‘zgarishlarga oyoqlar, ko‘rish a‘zolari bosh miyaning bir-biriga bog‘liq holda taraqqiy etganligi biologik korrelatsiyagi misol bo‘la

oladi.[3] Odam o‘q skeleti rivojlanishida ayrim hollarda umurtqalari yoylari qo‘shilmasligi oqibatida umurtqa qismlari o‘zaro yaxshi birikmay qoladi, natijada “spina bifidia”-umurtqa kanali deffekti anomaliya shakllanadi. Bunday hollarda deffekt oqali orqa miyaning ma‘lum qismi chiqib turadi – orqa miya churrasi deb ham nomlanadi va orqa miya funksiyasi keskin buzilishiga olib keladi. Tug‘ma paxionxiya – tirnoq plastinkalarining haddan tashqari qalinlashuvi va tirnoqda bo‘ylama chiziqlarning paydo bo‘lishi. Albinizm – terining butun sathida yoki ayrim joylarida, sonda, ko‘z qorachig‘ida melanin pigmentining bo‘lmasligi. Atrixoz (alopetsiya)- bosh sohasida batamom soch o‘smasligi. Gemangioma – qon tomirlardan iborat, teridan ancha ko‘tarilib turuvchi rangli dog‘lar [4].

Kasalliklarni davolash usullari: gemangiomani kutib turish taktikasi, medikamentoz va gormonal davo, immunoterapiya, betta blokator, jarrohlik, skleroterapiya, kriodestruksiya, lazerli destruksiya, elektrokoagulyatsiya va nur bilan davolash usullari qo‘llaniladi. Atrixoz (alopetsiya) ni davolashda, ko‘plab vitaminlar, mikroelementlar, tinchlantiruvchi antibiotiklar va fizioterapiya buyuriladi. Hozirda abinizm uchun samarali gen terapiyasi mavjud emas. Shuning uchun yagona davolash usuli – bu kanserogen xavflardan qochish uchun quyoshdan himoya qilish (ko‘z oynak va indeksli quyosh kremlaridan foydalanish). Hayot davomida dermatolog va oftalmolog tomonidan muntazam ravishda monitoring o‘tkazish maqsadga muvofiqdir [5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Filogenezni tadqiq qilish evolutsiyaning umumiy nazariyasini rivojlantirish, organizmlarning tabiiy sistemasini tuzish uchun zarurdir. Umurtqali organlar tizimi filogenezi, ushbu tip hayvonlari evolutsiyaning progressiv yo‘nalishi bo‘yicha bosh suyaksizlar kenja tipidan boshlab sutemizuvchilargacha ko‘rib chiqiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yigacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni/ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y. 06/19/5847/3887-son.
2. Nishonboyev K.N., Hamidov J.H. Tibbiy biologiya va genetika. - Toshkent, 2005.
3. <https://ppt-online.org/1330773>
4. <https://n.ziyouz.com>